

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
YURISTLAR MALAKASINI OSHIRISH MARKAZI

"KELISHILGAN"

O'zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi Huquqiy xizmat
ko'rsatishni tartibga solish
boshqarmasi boshlig'i

D.Umarov

2022-yil 28 - oktabr

"TASDIQLAYMAN"

O'zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi qoshidagi
Yuristlar malakasini oshirish
markazi direktori

Sh. Rabihev

2022-yil 28 - oktabr

**"BOSHQA XO'JALIK YURITUVCHI SUB'EKTALAR YURIDIK XIZMATI XODIMLARINING
(YURISKONSULTLAR) MALAKASINI OSHIRISH" KURSI BO'YICHA**

O'QUV DASTURI

(malaka oshirish)

O'quv dasturi Yuristlar malakasini oshirish markazi O'quv va ilmiy-uslubiy Kengashining
2022-yil _____ -dagi yig'ilishida muhokama qilingan va ma'qullangan
(____-sonli bayonnomma)

**“Boshqa xo’jalik yurituvchi sub’ektlar yuridik xizmati xodimlarining
(yuriskonsultlar) malakasini oshirish”
O’QUV KURSINING MAZMUNI**

I. Kirish

Mamlakatimizda davlat organlari va tashkilotlari faoliyatini, ayniqla o’rtalagi quyi bo’g’inda huquqiy jihatdan ta’minalash hamda ularga sifatli va professional yuridik xizmat ko’rsatishga qaratilgan islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, sohaga tajribali kadrlarning jalb qilinishidagi kamchiliklar hujjatlar loyihalarining iqtisodiy, moliyaviy va huquqiy ekspertizadan o’tkazilishi sifatiga salbiy ta’sir ko’rsatmoqda. Natijada qabul qilinayotgan qarorlar va boshqa hujjatlar ko’p hollarda joylarda jismoniy va yuridik shaxslarning e’tirozlariga sabab bo’lmoqda.

Shu bois, xo’jalik boshqaruv organlari va tashkilotlari faoliyatida qonuniylikni yanada mustahkamlash hamda ularning xodimlari huquqiy madaniyatini oshirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O’quv dasturi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-yanvardagi “Yuridik xizmat faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-2733-sun qarori hamda 2021-yil 10-fevraldagi PF-6166-sun “Qonun hujjatlarni ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi Farmonlarida belgilagan talablarga mos keladi.

II. Kursning maqsadi

Xo’jalik boshqaruv organlari yuridik xizmati xodimlarining (yuriskonsultlar) quyidagi yo’nalishlar bo’yicha nazariy bilimlarini oshirish, ko’nikmalarini rivojlantirish:

1-modul bo’yicha: “Yuridik xizmat faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-2733-sun Prezident qaroriga ko’ra yuridik xizmatlarning qonun ustuvorligini tia’minalashga doir funksiyalari, jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarini ko’rib chiqishda qonuniylikni ta’minalash borasidagi yuridik xizmatning funksiyalari, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo’nalishlari hamda uni amalga oshirishda yuridik xizmatning roli hamda yuridik xizmat faoliyatida hujjatlar loyihalarining yuridik texnikasi.

2-modul bo’yicha: O’zbekiston Respublikasining “Ma’muriy tartib-taomillar to’g’risida”gi qonunning, Ma’muriy sud ishlarini yuritish to’g’risidagi kodeksining mazmun-mohiyati, O’zbekiston Respublikasining iqtisodiy-protsessual, fuqarolik-protsessual jinoyat-protsessual va O’zbekiston Respublikasi jinoyat va ma’muriy javobgarlik to’g’risidagi qonunchiliklariga kiritilgan oxirgi o’zgartish va qo’shimchalar.

3-modul bo’yicha: mehnat haqidagi qonunchilikka riosa etilishi va mehnat intizomini mustahkamlashda yuridik xizmatning o’rni, jamoa shartnomasi va ichki mehnat tartibi qoidalari ishlab chiqish hamda ijrosini ta’minalashda yuridik xizmatning ishtiroki, mehnat shartnomasini tuzish, unga o’zgartirish kiritish va bekor qilishning ayrim masalalari, o’rindoshlik asosida ishlashning o’ziga xos xususiyatlari, ishga tiklash haqidagi nizolařni sudda ko’rishning alohida xususiyatlari hamda yangi tahrirdagi Mehnat kodeksidagi yangiliklar.

4-modul bo’yicha: kompleks tadbirkorlik litsenziyasi shartnomasi va uning asosiy qoidalari, elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma’lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi, oshkor etilmagan axborot (nou-xau) va uni muhofaza qilish masalalari hamda internetda intellektual mulk huquqlarini huquqiy himoya qilish muammolari, internet jahon axborot tarmog’idagi faktlarni tasdiqlash.

5-modul bo’yicha: yuridik xizmatlarning shartnomalarni tuzish, bajarish, o’zgartirish va bekor qilishga oid funksiyalari, shartnomaviy munosabatlardan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarilishini ta’minalashda yuridik xizmatning o’rni, yuridik xizmat tomonidan mulkni saqlash bo’yicha huquqiy ta’minalash ishlarini tashkil qilish, yuridik xizmatning da’vo ishlarini olib borish, mulkiy va

boshqa manfaatlarni huquqiy himoya qilish funksiyasi hamda yuridik xizmatning tekshirishlar, taftishlar va xatlovlarda hamda ularga oid hujjatlar bo'yicha huquqiy xulosalar berishdagi ishiroki.

6-modul bo'yicha: inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha xalqaro va milliy mexanizmlar, milliy qonunchilik va xalqaro mehnat standartlarga muvofiq kafolatlangan mehnat huquqlarini ta'minlash masalalari, xalqaro shartnomalarning O'zbekiston Respublikasi huquqiy tizimidagi ahamiyati hamda xalqaro arbitraj va Arbitraj kelishuvi.

7-modul bo'yicha: Yuridik xizmatlar faoliyatida shaxslararo munosabatlar va muloqot psixologiyasi hamda nizoli vaziyatlar va jamoda nizolarni hal etishning samarali usullari.

III. Kursning vazifalari

Davlat organlari va mahalliy davlat hokimiyati yuridik xizmati xodimlarining (yuriskonsultlar) quyidagi yo'nalishlar bo'yicha nazariy bilimlarini oshirish, ko'nikmalarini rivojlantirish:

Qonun ustuvorligini ta'minlashda yuridik xizmatlarning roli;

Ma'muriy tartib taomillar va protsessual qonunchilikni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari;

Mehnat qonunchiligidagi rioya etilishi bilan bog'liq masalalar;

Intellektual mulk huquqi ob'ektlarining huquqiy muhofazasi;

Shartnomaviy-huquqiy va talabnoma-da'vo ishlarini yuritish, mulkiy hamda boshqa manfaatlarni himoya qilinishini ta'minlash;

Yuridik xizmatlar faoliyatida xalqaro-huquqiy standartlar;

Yuridik xizmat xodimlariga qo'yiladigan zamonaviy talablar

IV. Yuriskonsultlarning bilim, ko'nikmalariga (kompetentlik) qo'yiladigan kasbiy malaka talablari

Quyidagilar o'quv dasturini o'zlashtirgan tinglovchilarga qo'yiladigan kasbiy malaka talablari hisoblanadi:

qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini tashkil eta olish ko'nikmalariga ega bo'lism;

murojaatlar bilan ishslash, ish yuritish va ijob intizomini ta'minlash ko'nikmalariga ega bo'lism;

huquqiy targ'ibot va aholining huquqiy savodxonligini oshirishga doir faoliyatni amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lism;

faoliyatida korrupsiya va manfaatlarni to'qnashuvini oldini olish bo'yicha zarur bilimlarni egallash;

o'z ish faoliyati samaradorligini oshirish uchun zamonaviy axborot texnologiyalari va "Elektron hukumat" tizimidan samarali foydalana olish ko'nikmalariga ega bo'lism;

ma'muriy tartib-taomillar to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarini mohiyatini bilish;

yuridik nutq, notiqlik va yozma nutq mahoratiga ega bo'lism;

muloqot psixologiyasining ish faoliyatida o'rni va ahamiyati hamda jamoadagi konfliktli vaziyatlar, ularni bartaraf etish imkoniyatlari haqida bilish;

xizmat ko'rsatayotgan davlat organ va tashkilotining mulkiy va boshqa manfaatlarni ishonchli himoya qilinishini ta'minlay olish ko'nikmalariga ega bo'lism.

V. Kutilayotgan natijalar

Kurs yakunida tinglovchilar qonun ustuvorligini ta'minlashda yuridik xizmatlarning roli, ma'muriy tartib taomillar va protsessual qonunchilikni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari, mehnat qonunchiligidagi rioya etilishi bilan bog'liq masalalar, intellektual mulk huquqi ob'ektlarining huquqiy muhofazasi, shartnomaviy-huquqiy va talabnoma-da'vo ishlarini yuritish, mulkiy hamda boshqa manfaatlarni himoya qilinishini ta'minlash, yuridik xizmatlar faoliyatida xalqaro-huquqiy standartlar hamda yuridik xizmat xodimlariga qo'yiladigan zamonaviy talablarga oid nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni egallaydilar.

**“Boshqa xo’jalik yurituvchi sub’ektlar yuridik xizmati xodimlarining
(yuriskonsultlar) malakasini oshirish” o’quv kursining
MAVZULAR REJASI**

№	Modul va mavzular nomi	Mashg’ulotlarga ajratilgan soatlar			
		Ma’ruza	Seminar- treing	Amaliy mashg’ulot	Jami
1-modul. Qonun ustuvorligini ta’minlashda yuridik xizmatlarning roli					
1.	“Yuridik xizmat faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-2733-son Prezident qaroriga ko’ra yuridik xizmatlarning qonun ustuvorligini tia’minlashga doir funksiyalari	-	2	-	2
2.	Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarini ko’rib chiqishda qonuniylikni ta’minlash borasidagi yuridik xizmatning funksiyalari	-	2	-	2
3.	Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo’nalishlari hamda uni amalga oshirishda yuridik xizmatning roli	2	-	-	2
4.	Yuridik xizmat faoliyatida hujjatlar (<i>buyruqlar, shartnomalar va yuridik tusdagi boshqa hujjatlar</i>) loyihalarining yuridik texnikasi	-	-	2	2
2-modul. Ma’muriy tartib taomillar va protsessual qonunchilikni qo’llashning o’ziga xos xususiyatlari					
5.	O’zbekiston Respublikasining “Ma’muriy tartib-taomillar to’g’risida”gi qonunning mazmuni va mohiyati	2	-	-	2
6.	O’zbekiston Respublikasining Ma’muriy sud ishlarini yuritish to’g’risidagi kodeksining mazmun-mohiyati	2	-	-	2
7.	O’zbekiston Respublikasining iqtisodiy-protsessual hamda fuqaroqlik protsessual qonunchiligidagi kiritilgan oxirgi o’zgartish va qo’shimchalar	2	2	-	4
8.	O’zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual qonunchiligidagi kiritilgan oxirgi o’zgartish va qo’shimchalar	2	-	-	2
9.	O’zbekiston Respublikasi jinoyat va ma’muriy javobgarlik to’g’risidagi qonunchiliklariga kiritilgan oxirgi o’zgartish va qo’shimchalar	2	2	-	4
3-modul. Mehnat qonunchiligidagi rioya etilishi bilan bog’liq masalalar					
10.	Mehnat haqidagi qonunchilikka rioya etilishi va mehnat intizomini mustahkamlashda yuridik xizmatning o’rni	-	-	2	2
11.	Jamoa shartnomasi va ichki mehnat tartibi qoidalarini ishlab chiqish hamda ijrosini ta’minlashda yuridik xizmatning ishtiroki	-	-	2	2
12.	Mehnat shartnomasini tuzish, unga o’zgartirish kiritish va bekor qilishning ayrim masalalari. O’rindoshlik asosida ishlashning o’ziga xos xususiyatlari	2	2	2	6
13.	Ishga tiklash haqidagi nizolarni sudda ko’rishning alohida xususiyatlari	-	2	2	4
14.	Yangi tahrirdagi Mehnat kodeksidagi yangiliklar	-	2	-	2

4-modul. Intellektual multk huquqi ob'ektlarining huquqiy muhofazasi						
15.	Kompleks tadbirkorlik litsenziyasi shartnomasi va uning asosiy qoidalari	-	-	-	2	2
16.	Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi	2	-	-	-	2
17.	Oshkor etilmagan axborot (nou-xau) va uni muhofaza qilish masalalari	-	-	-	2	2
18.	Internetda intellektual multk huquqlarini huquqiy himoya qilish muammolari, internet jahon axborot tarmog'idagi faktlarni tasdiqlash.	-	-	-	2	2
5-modul. Shartnomaviy-huquqiy va talabnama-da'vo ishlarini yuritish, mulkiy hamda boshqa manfaatlarni himoya qilinishini ta'minlash						
19.	Yuridik xizmatlarning shartnomalarni tuzish, bajarish, o'zgartirish va bekor qilishga oid funksiyalari	-	2	-	-	2
20.	Shartnomaviy munosabatlardan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarilishini ta'minlashda yuridik xizmatning o'rni	-	2	-	-	2
21.	Yuridik xizmat tomonidan mulkni saqlash bo'yicha huquqiy ta'minlash ishlarini tashkil qilish	-	-	-	2	2
22.	Yuridik xizmatning da'vo ishlarini olib borish, mulkiy va boshqa manfaatlarni huquqiy himoya qilish funksiyasi. Yuridik xizmatning tekshirishlar, taftishlar va xatlovlarda hamda ularga oid hujjatlar bo'yicha huquqiy xulosalar berishdagi ishiroki	-	-	-	2	2
6-modul. Yuridik xizmatlar faoliyatida xalqaro-huquqiy standartlar						
23.	Inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha xalqaro va milliy mexanizmlar	2	-	-	-	2
24.	Milliy qonunchilik va xalqaro mehnat standartlarga muvofiq kafolatlangan mehnat huquqlarini ta'minlash masalalari	2	-	-	-	2
25.	Xalqaro shartnomalarning O'zbekiston Respublikasi huquqiy tizimidagi ahamiyati	-	2	-	-	2
26.	Xalqaro arbitraj va Arbitraj kelishuvi	-	2	-	-	2
7-modul. Yuridik xizmat xodimlariga qo'yiladigan zamonaviy talablar						
27.	Yuridik xizmatlar faoliyatida shaxslararo munosabatlar va muloqot psixologiyasi	2	-	-	-	2
28.	Nizoli vaziyatlar va jamoda nizolarini hal etishning samarali usullari	-	-	-	2	2
Yakuniy sinov		-	-	-	6	6
		J A M I: 22 22 28 72				

O'QUV MATERIALINING MAZMUNI

1-modul. QONUN USTUVORLIGINI TA'MINLASHDA YURIDIK XIZMATLARNING ROLI

1-mavzu: "Yuridik xizmat faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2733-son Prezident qaroriga ko'ra yuridik xizmatlarning qonun ustuvorligini tia'minlashga doir funksiyalari.

Davlat organlari va tashkilotlari yuridik xizmatlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari. Davlat organlari va tashkilotlarining yuridik xizmati to'g'risida Nizom. Yuridik xizmat. Yuridik xizmat faoliyatining asosiy yo'nalishlari va funksiyalari. Yuridik xizmatning huquqlari, majburiyatları va javobgarligi. Davlat organlari va tashkilotlarining yuridik xizmati to'g'risida Nizomning bajarilishini nazorat qilish. Davlat organlari va tashkilotlari yuridik xizmat xodimlarining martaba darajalari to'g'risidagi Nizom.

Manbalar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahriri).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-yanvardagi "Yuridik xizmat faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2733-son qarori.

Internet resurslari:

1. <http://lex.uz>.
2. <http://www.gov.uz>.

2-mavzu: Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari ko'rib chiqishda qonuniylikni ta'minlash borasidagi yuridik xizmatning funksiyalari.

"Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi qonuning maqsadi va qo'llanilish sohasi. Murojaatlarni ko'rib chiqishning asosiy prinsiplari. Murojaatlarning shakllari va turlari hamda ularga qo'yiladigan talablar. Jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilish tartibi. Xalq qabulxonalarini va virtual qabulxonalar hamda ularning asosiy vazifalari, huquq va majburiyatları. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaat etish huquqlari kafolatlari. Murojaatlarni berish va ularni ko'rib chiqish tartibi. Nizolarni hal etish. Moddiy zararning o'rnnini qoplash va ma'naviy ziyonni kompensatsiya qilish. Murojaatlar to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik.

Manbalar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahriri).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5618-sonli Farmoni.

Internet resurslari:

1. <http://lex.uz>.
2. <http://www.gov.uz>.

3-mavzu: Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari hamda uni amalga oshirishda yuridik xizmatning roli.

Korrupsiya tushunchasi, turlari, sabablari va ijtimoiy xavfliligi. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan normativ hujjatlar. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosati va uni amalga oshirish mexanizmlari. Korrupsiyaviy huquqbazarliklar uchun javobgarlik. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishda yuridik xizmatning o'rni.

Manbalar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi.
3. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-sonli "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni.

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 829-sloni "Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagli PF-6257-sloni "Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagli PQ-5177-sloni "Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi PQ-81-sloni "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PQ-240-sloni "Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.

10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 829-sloni "Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori.

Internet resurslari:

1. <http://lex.uz>.
2. <http://www.gov.uz>.
3. <https://anticorruption.uz/uzc>.

4-mavzu: Yuridik xizmat faoliyatida hujjatlar (*buyruqlar, shartnomalar va yuridik tusdag'i boshqa hujjatlar*) loyihalining yuridik texnikasi.

Yuriskonsultlar huquqni qo'llash faoliyati jarayonida qo'llaniladigan buyruqlar, farmoyishlar, shartnomalar, talabnomalar, ishonchnomalar, da've arizasi, murojaatlar, yuridik xulosa, bayonna, dalolatnoma. Yuriskonsultlar huquqni qo'llash faoliyati jarayonida mavjud bo'ladigan yuridik tusdag'i boshqa hujjatlar loyihalari.

Manbalar:

1. O'zbekiston Respublikasining Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi.
3. Otaxonov F., Qodirov K., Otaxonov S., Xajiev N. Fuqarolik-huquqiy shartnomalar (amaliy qo'llanma), -T.: 2010.
4. Najimov M.K., Saydullaev Sh.A. Qonunchilik texnikasi. O'quv-uslubiy qo'llanma. –T.: TDYUI, 2009.
5. Najimov M.K., Saydullaev Sh.A. Qonunchilik texnikasi. O'quv qo'llanma. Qayta ishlangan va to'ldirilgan 2-nashr. –T.: TDYUI, 2009.
6. Tomin V.A. Yuridicheskaya texnika: uchebnoe posobie / V.A.Tomin. — Sankt-Peterburg: Sankt-Peterburgskiy yuridicheskiy institut (filial) Akademii Generalnoy prokuratur Rossiyskoy Federasiy, 2015.

Internet resurslari:

1. <http://lex.uz>.

2-modul. MA'MURIY TARTIB TAOMILLAR VA PROTSESSUAL QONUNCHILIKNI QO'LLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

5-mavzu: O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi qonunning mazmuni va mohiyati.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholiga davlat xizmatlari ko'rsatishning milliy tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni xaqida. Davlat xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirish masalalari. Davlat xizmatlari ko'rsatishning ayrim turlari yuzasidan Ma'muriy reglament xaqida. Ma'muriy reglamentlar va ularning mazmun-mohiyati.

Manbalar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining "Lisenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida"gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi.

Internet resurslari:

1. <http://lex.uz>.
2. <http://www.gov.uz>.

6-mavzu: O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksining mazmun-mohiyati.

Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalar mazmuni va mohiyati. Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksga kiritilgan yangi moddalarning yuridik tavsifi va ularning advokat faoliyatidagi ahamiyati. Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirishning ustuvor yo'naliishlari.

Manbalar:

1. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi.
2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni 2020-yil 10-martdagi "Sud ishlarini yuritish tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-607-son Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-yanvardagi "Sud qarorlarini qayta ko'rish instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'RQ-662-son Qonuni.
4. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-683-son Qonuni.
5. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 16-avgustdagi "Er uchastkalarini ajratish va ulardan foydalanish, shuningdek yerlarni hisobga olish va davlat yer kadastrini yuritish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-708-son Qonuni.

Internet resurslari:

1. <http://lex.uz>.
2. <http://www.gov.uz>.

7-mavzu: O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy-protsessual hamda fuqarolik-protsessual qonunchiligiga kiritilgan oxirgi o'zgartish va qo'shimchalar.

Iqtisodiy-protsessual va fuqarolik-protsessual kodekslaridagi ohirgi o'zgartish va qo'shimchalar mazmum-mohiyati va ularga kiritilgan yangi moddalarning yuridik tavsifi va ahamiyati. Yuridik xizmatlar tomonidan iqtisodiy-protsessual va fuqarolik-protsessual qonunchilikka kiritilgan yangiliklarning mazmun-mohiyatini aholiga yetkazishning ahamiyati. Iqtisodiy-protsessual va fuqarolik-protsessual qonunchilikni takomillashtirishning ustuvor yo'naliishlari.

Manbalar:

1. O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy-protsessual kodeksi.
2. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy-protsessual kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik-protsessual kodeksi.
4. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida"gi Qonuni.

Internet saytlari

1. <http://lex.uz>.

2. <http://www.gov.uz>.

3. <https://paruz.uz>.

8-mavzu: O'zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual qonunchiligiga kiritilgan oxirgi o'zgartish va qo'shimchalar.

Jinoyat-protsessual kodeksiga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalar mazmuni va mohiyati. Jinoyat-protsessual kodeksiga kiritilgan yangi moddalarning yuridik tavsifi va ularning advokat faoliyatidagi ahamiyati. Jinoyat protsessi bosqichlari. Jinoyat protsessi ishtirokchilari. Himoya, advokat va advokat faoliyat. Himoyalanuvchi huquqlari. Jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari..

Manbalar:

1. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi.

2. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat hamda Jinoyat-protsessual kodekslariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni.

Internet saytlari

1. <http://lex.uz>.

2. <http://www.gov.uz>.

3. <https://paruz.uz>.

9-mavzu: O'zbekiston Respublikasi jinoyat va ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchiliklariga kiritilgan oxirgi o'zgartish va qo'shimchalar.

Davlatning jinoyatchilikka qarshi kurashish siyosati. Jinoyat kodeksiga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalar mazmuni va mohiyati. Jinoyat kodeksiga kiritilgan yangi moddalarning yuridik tavsifi va ularning advokat faoliyatidagi ahamiyati. Jinoyat, jinoyat uchun jazo, jazo koloniyalari, maxkumlar huquq va majburiyatlar. Jinoyat qonunchiligini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchiligidagi islohotlar. Ma'muriy javobgarlik tug'risidagi kodeksiga kiritilgan o'zgartish, qo'shimchalar va yangiliklarning ahamiyati.

Manbalar:

1. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi.

2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi.

3. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat hamda Jinoyat-protsessual kodekslariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni.

4. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi.

Internet saytlari

1. <http://lex.uz>.

2. <http://www.gov.uz>.

3. <https://paruz.uz>.

3-modul. MEHNAT QONUNCHILIGIGA RIOYA ETILISHI BILAN BOG'LIQ MASALALAR

10-mavzu: Mehnat haqidagi qonunchilikka rioxaya etilishi va mehnat intizomini mustahkamlashda yuridik xizmatning o'rni.

Mehnat jamolarida mehnat tartibi. Intizom to'g'risidagi ustav va nizomlar. Xodimning burchlari. Ish beruvchining burchlari. Xodimlarni ularga yuklatilgan mehnat vazifalari bilan tanishtirish. Mehnat intizomini ta'minlash. Korxona ichki mehnat tartibi qoidalari namunasi. Intizomiy jazolar. Intizomiy jazolarni qo'llanish tartibi. Intizomiy jazoning amal qilish muddati. Intizomiy jazoning amal qilish muddati.

Manbalar:

1. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi.

2. O'zbekiston Respublikasining "Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni.

3. O'zbekiston Respublikasining «Aholi bandligi to'g'risida»gi Qonuni.

4. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1998-yil 17-apreldagi 12-soni "Sudlar tomonidan mehnat shartnomasi (kontrakti)ni bekor qilinishini tartibga soluvchi qonunlarning qo'llanilishi haqida"gi qarori.

5. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga sharhlar. Mualliflar jamoasi. – T., 2008.

6. Gasanov M.Yu., Sokolov Ye.A. O'zbekiston Respublikasida mehnat shartnomalari (kontrakt). – T., 1-2-tomlar. 1996.

Internet resurslari:

1. <http://lex.uz>.
2. <http://www.gov.uz>.

11-mavzu: Jamoa shartnomasi va ichki mehnat tartibi qoidalarini ishlab chiqish hamda ijrosini ta'minlashda yuridik xizmatning ishtiroki.

Jamoa shartnomasi, jamoa kelishuvlarining tushunchasi va maqsadi. Jamoa shartnomalarining mazmuni va tuzilishi. Jamoa shartnomalari va kelishuvlarining bajarilishini ta'minlash. Jamoa shartnomasi va kelishuvlarini bajarishning kafolatlari. Jamoa shartnomasi va kelishuvlari bajarilishini ta'minlashning huquqiy vositalari. Jamoa shartnomasi va kelishuvi shartlarini buzganlik uchun javobgarlik.

Manbalar:

1. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi.
2. O'zbekiston Respublikasining «Kasaba uyushmalar to'g'risida»gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining «Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida»gi Qonuni.
4. Mehnat huquqiy munosabatlaridan kelib chiqadigan nizolar. Amaliy qo'llanma. – T., 2016.
5. Mamasiddiqov M., Fayziyev X. Mehnat nizolari va ularni sudda ko'rish xususiyatlari. Ilmiy-amaliy qo'llanma. – T., 2016.

Internet resurslari:

1. <http://lex.uz>.
2. <http://www.gov.uz>.

12-mavzu: Mehnat shartnomasini tuzish, unga o'zgartirish kiritish va bekor qilishning ayrim masalalari. O'rindoshlik asosida ishlashning o'ziga xos xususiyatlari.

Mehnat shartnomasi tushunchasi va turlari. Mehnat shartnomasi taraflarining moddiy javobgarligi. Mehnat shartnomalarini tuzish, o'zgartish va bekor qilish tartibi. Xodimlar vakillik organlarining huquqlari. Mehnat shartnomasini bekor qilish asoslari. Mehnat shartnomasini xodimning va ish beruvchining tashabbusi bilan bekor qilish asoslari va tartibi. Mehnat shartnomasining taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'Imagan holatlar bo'yicha bekor qilinishi.

Manbalar:

